

# FAKTORING XIZMATLARI BOZORI SHARHI

## Qisqa tavsif

2025-yil yakuni bo'yicha


Mazkur **Faktoring xizmatlari bozori sharhi** O'zbekiston Respublikasida mahalliy va xalqaro faktoring xizmatlarining joriy holati, ularning rivojlanish yo'nalishlari, hududlar va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi qamrovi hamda kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo'llanilayotgan diskont stavkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritadi.

## I. Mahalliy faktoring amaliyotlari tahlili

### Kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan faktoring xizmatlari hajmi

2025-yilda kredit tashkilotlari tomonidan jami 9,5 trillion so'mlik faktoring xizmatlari ko'rsatilib, shundan 8,8 trillion so'mi yoki 93 foizi tijorat banklari, 699 milliard so'mi yoki 7 foizi mikromoliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Kredit tashkilotlari tomonidan 2024–2025-yillarda ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining dinamikasi, mlrd so'm



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining 4,4 trillion so'mi yoki 46 foizi raqamli faktoring hisoblanib, shundan 2,5 trillion so'mi (58 foiz) "Ozplanet" elektron platformasi va 1,8 trillion so'mi (42 foiz) "Finmakon" elektron platformasi orqali amalga oshirilgan.

Eng yuqori oylik faktoring hajmi 2024-yil dekabrda 630 milliard so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yil dekabrda 1,2 trillion so'mga yetgan.

### **Banklar va mikromoliya tashkilotlari kesimida**

Davlat ulushi mavjud tijorat banklari jami 5 trillion so'm (56 foiz), xususiylar banklar 3,8 trillion so'm (44 foiz) faktoring xizmatlari taqdim etgan. Bunda davlat ulushi mavjud yetakchi tijorat banklardan Asaka Bank - 1,5 trillion so'm, O'zmilliybank - 921 mlrd so'm, O'zsanoatqurilishbank - 761 mlrd so'm, xususiylar banklardan Kapitalbank - 1,3 trillion so'm, Hamkorbank - 909 mlrd so'm va Asia Alliance Bank - 354 mlrd so'm miqdorda faktoring xizmatlarini ko'rsatgan.

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan jami 699 mlrd so'mlik debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirilgan. Qisqa muddatli moliyalashtirishda faktoringning ulushi 2025-yil davomida 4,5 foizdan 11,1 foizga oshgan.

### **Hududlar kesimida**

Hududlar kesimida eng katta ulush Toshkent shahri (43,3%), Andijon (20,4%), Toshkent viloyati (9,1%), Farg'ona (5,7%) viloyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng past ulush Surxondaryo (0,7%), Sirdaryo (0,5%), Jizzax (0,5%) viloyatlariga to'g'ri keldi.

### **Mijozlarning tashkiliy shakli kesimida**

Mijozlarning tashkiliy shakli bo'yicha ko'rsatilgan faktoring xizmatlari taqsimotida eng yuqori ulush mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (65,4%), aksiyadorlik jamiyatlari - 19 foiz, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar - 13,3 foiz, xususiylar va oilaviylar korxonalar - 2,3 foiz.

### **Muddatlar qirqimida**

Muddatlar qirqimida 30 kungacha faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 2,2 trln so'm, 31 kundan 60 kungacha 1,9 trln so'mni, 61 kundan 90 kungacha 3,6 trln so'mni, 91 kundan 120 kungacha 0,7 trln so'mni hamda 121 kundan 180 kungacha 1 trln so'mni tashkil qilgan.

### **Aylanma mablag'lari kesimida**

Jami faktoring xizmatlarining 3 foizi yillik aylanma mablag'lari 1 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga, 6 foizi aylanmasi 1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlarga, 18 foizi aylanmasi 10 mlrd so'mdan 100 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlarga va 73 foizi aylanmasi 100 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan tadbirkorlarga ko'rsatilgan.

### **Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida**

Jami faktoring xizmatlarining 48 foizi sanoat, 44 foizi savdo va xizmat ko'rsatish, 4 foizi qurilish, 4 foizi qishloq xo'jaligi yo'nalishlariga to'g'ri kelgan.

## II. Xalqaro faktoring amaliyotlari tahlili

---

Xalqaro faktoring xizmatlari 2025-yilda jami 642 mlrd so'm (7 foiz) bo'lib, barcha operatsiyalar regress huquqi bilan amalga oshirilgan.

### Banklar kesimida

Xalqaro faktoring operatsiyalarida banklar bo'yicha eng yuqori hajm Asakabank (56 foiz), Mikrokreditbank (14 foiz), Biznesni rivojlantirish banki (14 foiz) tomonidan ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zmilliybank (9 foiz), Turon bank (5 foiz), Ipak yo'li banki (3 foiz).

### Mijozlarning tashkiliy shakli kesimida

bo'yicha ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlarining taqsimotida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (93,5%) xususiy, oilaviy korxonalar va fermer xo'jaliklari (5,8%), chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining (0,6%) debitorlik qarzlari faktoring xizmatlari orqali moliyalashtirilgan.

### Muddatlar kesimida

30 kungacha xalqaro faktoring xizmatlari jami xalqaro faktoring xizmatlarining 40 foizini, 31 kundan 60 kungacha 9 foizini, 61 kundan 90 kungacha 26 foizini, 91 kundan 120 kungacha 9 foizini hamda 121 kundan 180 kungacha 16 foizini tashkil qilgan.

### Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilib, jami hajmning 65 foizini tashkil etgan. Sanoat tarmog'iga 32 foiz mablag'lar yo'naltirilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sektorlarida jami hajmning 3 foizi miqdorda debitorlik qarzdorliklari moliyalashtirildi.



### Davlatlar kesimida

Xalqaro faktoring xizmatlari Tojikiston (39%), Rossiya (33,7%), Qozog'iston (10,3%), Qirg'iziston (9,9%), Belarus (1,9%), Polsha (1,8%), BAA (1,7%), Buyuk Britaniya (1%), AQSh (0,2%), Italiya (0,2%), Shveysariya (0,1%) davlatlariga amalga oshirilgan eksport operatsiyalari bo'yicha yuzaga kelgan debitorlik qarzdorliklarini moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan.

### III. Faktoring xizmatlari diskont stavkasi

Tijorat banklari tomonidan mahalliy va xalqaro faktoring xizmati bo'yicha bank mahsulotlari ishlab chiqilgan bo'lib, faktoring xizmat turlarining muddatlaridan (180 kungacha) kelib chiqqan holda diskont stavkalari belgilangan.

#### Kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo'llanilayotgan diskont stavkalari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari